

## Tarixi

Fakultet 1945-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti tarkibida "Yer tuzish" nomi bilan tashkil etilgan bo'lib, 2004-yildan "Yerdan foydalanish va yer kadastr", 2018-yildan "Yer resurslarini boshqarish " nomi bilan faoliyat ko'rsatgan. 2022 yildan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining "Yer resurslari va kadastr" fakulteti sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Fakultet respublikada yer resurslarini boshqarish, yer tuzish, yer kadastr, geodeziya, geoinformatika, kartografiya va kadastr sohalari bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan yetakchi maskan hisoblanadi. Fakultet dastlab tashkil etilganda uning birinchi rahbari dotsent M.N.Maslov, keyinchalik esa professor P.K.Tatur, dotsentlar J.K.Baranov, V.S.Artamonov, A.N.Nazirov, A.T.Abdurazzoqov, professor A.Ramazonov, dotsent Q.Raxmonov, professor S.Avezbayev va dotsent Z.M.Muqimovlar yetakchilik qilishdilar. 2019 yildan buyon PhD, dotsent Sh.K. Narbayev fakultetga rahbarlik qilib kelmoqda. Bugungi kunda fakultetda "Yer resurslarini bosqarish", "Geodeziya va geoinformatika", "Davlat kadastrlari", "Tuproqshunoslik va dehqonchilik" va "Oliy matematika" kafedralari faoliyat ko'rsatmoqda. Kafedralarda respublikamiz ravnaqi uchun o'zining munosib hissasini qo'shayotgan olimlar va yetuk professorlar A.Chertovitskiy, S.Avezbayev, O.Ramazanov, A.Altiyev, Q.Rahmonov, B.Xudayarov, T.Ergashev, Sh.Salomov, dotsentlar, I.Musayev, A.Babajanov, O. Xaqberdiyev, Sh.Narbayev, X.Xayitov, S.Abduraxmonov, R.Oymatov, A.Inamov, O.Ruziqulova, Sh.Shakirov, Sh.Rahmonov Sh.Boyoqulov, S.Ro'ziboyev, O'. Muxtorov, V.Vaxobov, N.Yuldashev, O.Kucharov, X.Komilova, F.To'rayev, R.Egamberdiyev, O.Sindarov, J.Xayitboyeva va boshqa malakali professor-o'qituvchilar talabalarga bilim va ta'lim-tarbiya berishmoqdalar. Fakultetda yer resurslarini bosqarish, yer kadastr, yer tuzish, geodeziya va kartografiya, geoinformatika va yerni masofadan zondlash yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqarish bilan uzviy aloqalarni yo'lga qoygan. Hamkor korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda talabalarga sifatli bilim berish, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari va o'quv amaliyotlarini tashkil etish hamda professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-42-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'z davyerloyiha" ilmiy-loyihalash instituti, Iqtisodiyot va moliy vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, O'rmon xo'jaligi agentligi va uning tizimidagi korxonalar va tashkilotlar bilan samarali ishlar amalga oshirilmoqda.